



**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQARISHI**

**2021- YIL YANVAR-NOYABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 66 854,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.




**B**

Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash




**C**

Ishlab chiqaradigan  
sanoat



**D**



Elektr, gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash



**E**

Suv bilan ta'minlash;  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 41,7 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 0,7 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 2,6 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 21,7 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 383,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - noyabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54 903,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,1 % ini tashkil etdi.

2020- yil yanvar-noyabr


84,6 %

2021- yil yanvar-noyabr

82,1 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,4 % (4,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 84,1 % (88,4 %) va quyi texnologiyalisi – 7,2 % (6,4 %)ni tashkil etdi.

■ 2020- yil ■ 2021- yil





Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 75,3 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 117,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 110,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,4 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 158,4 %) ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Natriy gidroksidi (kaustik soda)**




**Suvsiz ammiak**




**Sement**



**Azot**



**Tvorog va tvorogdan mahsulotlar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**




2021- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,7 ming m<sup>3</sup> azot (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 129,7 % ga o'sgan), 3 459,4 ming tonna portlandsement (102,6 %), 632,9 ming tonna suvsiz ammiak (209,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	3 370,5	3 459,4	102,6
Azot, ming m <sup>3</sup>	10,5	13,7	129,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	61 394	57 679	93,9
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna	75,7	75,5	99,7
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	188,7	161,2	85,4
Suvsiz ammiak, ming tonna	302,2	632,9	209,4
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	406,8	445,8	109,6
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	75,2	53,8	71,5


### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 7,0 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 75,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 96,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 41 363,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 131,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 676,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 726,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 37,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 302,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish sanoati




2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 74,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 105,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 770,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 123,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,3 % ni, fizik hajm indeksi 174,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 020,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 499,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	10 620,0	9 948,2	-671,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 962,7	3 936,2	973,5

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	38 094,0	59 839,6	21 745,6
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	9,3	81,4	72,1
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	47 088,9	39 937,3	-7 151,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 157,1 % ni va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar - 8,8 (bar.) ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 784,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil  
yanvar-noyabr

40,9%

2021- yil  
yanvar-noyabr

42,2%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020- yil  
yanvar-noyabr

59,1%

2021- yil  
yanvar-noyabr

57,8%



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 28,1 % ni, Karmana tumani 19,6 % ni, Xatirchi tumani 12,6 % ni, Qiziltepa tumani 12,4 % ni hamda Navbahor tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (122,4 %) hamda Karmana tumanida (112,4 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 28,1 % shuningdek, Karmana 19,6 %, Xatirchi 12,6 % ni, Qiziltepa tumanlarida 12,4 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 34,5 % shuningdek, Karmana 22,9 %, Xatirchi 8,9 % ni, Nurota tumanlarida 8,4 % ni tashkil etdi.

**1 857,0** mlrd. so'm


2019- yil yanvar-noyabr

**2 036,6** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-noyabr

**2 187,3** mlrd. so'm

2021- yil yanvar-noyabr





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 19,2 % ni, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,6 % ni, Xatirchi tumani esa 17,6 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 85,2 % ni, shuningdek, Karmana tumani 9,9 % ni, Xatirchi tumani esa 1,7 % ni tashkil etdi.

Navoiy vloyati

2019- yil

40 298,1 mlrd. so'm

2020- yil

59 043,1 mlrd. so'm

2021- yil

66 854,7 mlrd. so'm



2019- yil


103,2 %

2020- yil

108,8 %

2021- yil

105,3 %



FHI, % da

mlrd. so'm

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 253,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,1 %), Nurota tumanida (94,2 %), Qiziltepa tumanida (81,5 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Navoiy shahrida (1,8 %), Karmana (16,0 %), Xatirchi (43,9 %), Navbahor (48,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**


Bugungi kunda viloyatimizda 3 635 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 760 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,9 %) Navoiy shahriga, 595 tasi (16,4 %) Karmana tumaniga, 477 tasi (13,1 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Jami yangi tashkil etilgan**



**Jami faoliyat yuritayotgan**



**yangi tashkil etilgan**

**faoliyat yuritayotgan**